XALQ DEPUTATLARI CHORTOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-avgust VI-65-94-6-88-K/24 Chortoq tumani

Chortoq tumani mahalliy budjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hamda 2024-yil boshiga erkin qoldiq hisobidan mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-sonli Qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga asosan Chortoq tumani mahalliy budjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hamda yil boshiga erkin qoldiq mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 4 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari, Prezidentning hududlarga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar, Vazirlar Mahkamasining qaror va ko‘rsatmalari tumanda bajarilishini inobatga olib, ushbu topshiriqlarning bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlarning tuman budjeti hisobidan amalga oshirilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 8 apreldagi KQ-331-IV-sonli qaroriga muvofiq, Xalq Deputatlari Chortoq tuman Kengashiga taqdim etgan taklifiga asosan, tuman mahalliy budjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘larni 1-sonli ilovaga asosan hamda 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 2-ilovaga muvofiq yo‘naltirilgan mablag‘lar tasdiqlansin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag‘lar doirasida belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limiga taqdim etish;

ajratilgan mablag‘lardan to‘g‘ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Chortoq tumani hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqovga tumanda daromadlarning oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘lar yo‘naltirish yuzasidan tegishli so‘rovlarni shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

Chortoq tuman Obodonlashtirish bo‘limi boshlig‘i J.Siddiqov, Chortoq tuman Madaniyat bo‘limi boshlig‘i F.Muradov, O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining Chortoq tuman bo‘limi boshlig‘i M.Ne’matillayevlar yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha so‘rovlarni shakllantirsin.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Boymirzayev) budjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (F.Qambarov) to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Umurzaqov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi  SATTAROV ILXOMJON RAXIMJANOVICH

Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-65-94-6-88-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Chortoq tuman mahalliy budjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdori

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Mablag‘ yo‘naltirish maqsadi	Mablag‘ miqdori (ming so‘mda)
1	Chortoq tumani hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi 132-sonli qaroriga asosan tumandagi “Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga mablag‘ yo‘nalirish uchun	186 637.0
2	Chortoq tumani Obodonlashtirish bo‘limi	Tumanda Obod qishloq davlat dasturi doirasida 2021-2022-yillarda qilingan ishlardan vujudga kelgan qarzdorlik uchun	350 000.0
3	Chortoq tumani Obodonlashtirish bo‘limi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoniga asosan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida daraxtzorlar barpo etish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirish ishlaridan qarzdorlik uchun	32 408.0
4	Chortoq tumani Madaniyat bo‘limi	Tumanda bo‘lib o‘tadigan bayram tadbirlarida ishtirok etuvchilarga sahna liboslari sotib olish uchun	32 724.0
5	Chortoq tumani hokimligi	2024-yil 27-oktabr kuni bo’lib o’tadigan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengash deputatligiga saylovlarni siyosiy partiyalar tomonidan sifatli o‘tkazish uchun	165 500.0
	Jami yo‘naltirilgan mablag‘lar		**767 269.0**

Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashining
2024-yil 5-avgustdagi
VI-65-94-6-88-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Chortoq tuman mahalliy budjetining 2024-yil boshiga erkin qoldiq hisobidan yo‘naltirilayotgan mablag miqdori

№	Mablag‘ oluvchi tashkilot, muassasa nomi	Mablag‘ yo‘naltirish maqsadi	Mablag‘ miqdori (ming so‘mda)
1	O‘zbekiston Mahallalari uyushmasining Chortoq tuman bo‘limi	O‘zbekiston Prezident maslahatchisining 2023-yil 27-dekabrdagi 6-sonli yig‘ilish bayoniga asosan “Obod xonadaon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” dasturiga tushgan tumandagi “Mustaqillik” MFYsi hududida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish uchun mablag‘ ajratish	196 200.0